

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“ URDU VA O'ZBEK TILLARIDA ATRIBUTIV ANIQLOVCHI ”

Bajardi: “Janubiy Osiyo tillari”

kafedrasi 4-kurs talabasi

Tursunbaeva Zamiraxon _____

(imzo)

Ilmiy rahbar: “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasi

dots., f.f.n. Abdurahmonova M. H. _____

(imzo)

TOSHKENT – 2015

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi”

fakulteti dekani

f.f.n., dots. Q. Sh. Omonov

“ _____ ” _____ 20 ____ yil

“Janubiy Osiyo tillari”

kafedrası mudiri

f.f.n., S. Nurmatov

“ _____ ” _____ 20 ____ yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	4-12
ASOSIY QISM.....	13-48
1-BOB. URDU VA O'ZBEK TILLARIDA ANIQLOVChINING BELGI-XUSUSIYATLARI VA TURLARI.....	13-33
1.1. Urdu tilida aniqlovchining belgi-xususiyatlari va turlari.....	13-27
1.2. O'zbek tilida aniqlovchining belgi-xususiyatlari va turlari.....	28-33
2-BOB. URDU VA O'ZBEK TILLARIDA ATRIBUTIV ANIQLOVChINING IFODALANISHI.....	34-48
2.1. Urdu tilida atributiv aniqlovchining ifodalanishi.....	34-44
2.2. O'zbek tilida atributiv aniqlovchining ifodalanishi.....	44-48
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	49-52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	53-56

KIRISH

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillar va me'zonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri– bu ta'lim-tarbiya tizimidir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya –ong mahsuli, lekin ayni vaqtda u ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining

asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi¹

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu – sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir.

Shularni o'ylayotib, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, undan o'quv jarayonida o'quvchi va talabalardan mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'yilmas edi. Har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarining bilimiga qarab emas, aksincha ularning sobiq sovet tizimiga va soxta g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p hollarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Aksariyat yoshlar haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, ko'proq amalda diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayon uzoq yillar davomida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi.

Men bunga ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida shaxsan o'zim guvohi bo'ldim.

Shuning uchun ham bu og'ir, ma'sulyatli ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarishga bel bog'ladik.

¹I. A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, Sharq, 1999. – 182-bet

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda ko'p bor o'zini oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi portlash effektiga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikrni bildirgan edim.²

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lib turibmiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.³

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lib kelayotgan 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'quvchi-talabalarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim- tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish yo'lida mustahkam zamin yaratdi desak, adashmagan bo'lamiz.

²I. A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008. – 173-bet

³I. A. Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq, 1998. 62- bet

Prezidentimiz nutqlarida hamda qabul qilingan hujjatlarda davlat, jamiyat, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari, ta'lim muassasalari va o'quv yurtlari jamoalari, o'quvchilar va talabalar, ota-onalar va keng jamoatchilik oldida turgan vazifalar aniq belgilab berilgan.

Prezidentimiz tomonidan 2014 yil mamlakatimizda **“Sog'lom bola yili”** deb e'lon qilindi. Shu ma'noda yoshlarimizni kelajak hayotga ishonch va ruhan, jismonan va ma'nan tayyorlash ishlariga keng jalb qilish darkor. Endigina ilm dargohini tamomlagan yosh kadrlarni o'z mutaxassisligi bilan bir qatorda o'zlarining mustaqil tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun bir qancha imkoniyat va sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Yoshlar davlatimiz kelajagining poydevoridir. Ularni har qanday sharoitda ham sobitqadam, yangiliklarni tez o'zlashtirib, ularni hayotga tatbiq qilish, samarali foydalanish salohiyatiga ega bo'lgan kuchli, ertangi kun egalari sifatida ulg'aytirish, tom ma'noda pedagog-o'qituvchilarning muqaddas burchi va vazifasi hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya – ongning darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad– ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablari va davlat ta'lim standartlarida yangi tipdagi o'quv yurtlarida hamda tayanch muassasalarida xorijiy til ta'limi tizimi oldiga juda yuksak mas'uliyat bilan yondashishi zarur va shart etib qo'yilmoqda. Zero, xorijiy tillardan hech bo'lmaganda ikkitasini egallamay turib, mustaqil mamlakatimiz uchun kerakli mutaxassis bo'lib yetishish mumkin emasligi ayon bo'lib qoldi.⁴

Shu ma'noda xorijiy tilni amaliy maqsadlar uchun o'rganish va o'rgatishdan kuzatilayotgan maqsadlar turlicha talqin etilsa-da, bular ichida bo'lajak mutaxassislarni muloqotga tayyorlash, ya'ni chet tili ta'limi va tahsilidan ko'zlanayotgan maqsad kommunikativ xususiyatda ekani oydinlashadi.

⁴O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Sharq Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami, 1997. 30 -bet

Chet tili va ta'limidan kuzatilgan maqsadlar mazkur xususiyatga ega ekani birinchi o'rinda, shubhasiz, chet tilida aloqa qilish amaliyotini qo'yadi. Bu amaliyot o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, nutqiy, ya'ni muloqot yo'sinidagi hodisadir. Shu boisdan chet tili ta'limi va tahsilining tashkil etilishi bilan samaradorlikka daxldor bo'ladi.

Biz kabi chet tilini o'rganayotganlar yuqoridagi ikki yo'nalishda, ya'ni til o'rganish va ularni amalda qo'llay olish hamda shu yo'nalishlarda tajriba to'plash kelajakdagi pedagogik faoliyatimizda muhim omil bo'ladi, deb hisoblash mumkin.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda chet tilini o'rganish davr talabiga aylanib ulgurgan. Qaysi bir o'quvchi yoki talabani olmaylik, o'zi o'zlashtirayotgan ta'lim sohasidan farqli ravishda, qo'shimcha tarzdagi biror-bir chet tiliga mehr qo'yib, uni imkoni boricha yuqori darajada o'zlashtirishga intilmoqda. Istalgan chet tiliga turli sifatlar bilan boyitib, unga yana chiroyliroq badiiy bo'yoq berish mumkin. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, bitiruv malakaviy ishimizning aniq maqsad va vazifalarni belgilab olsak.

Mavzuning dolzarbligi va ishning amaliy ahamiyati. Urdu tili grammatikasida bu mavzu bir necha moskvalik olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ammo o'zbek tilida atributiv aniqlovchining grammatik belgilari va ifodalanishi komparativ usulda, ya'ni chog'ishtirib yaxlit bir ilmiy ish sifatida o'rganilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Kelgusida amaliy nuqtai nazardan ushbu ish hindiy hamda urdu tili maxsus kursiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Rus olimi V. A. Chernishevning "Синтаксис простого предложения в хинди" asarining "Aniqlovchi" bobida aniqlovchining ikki turi atributiv aniqlovchi va predikativ aniqlovchi, uning moslashish qoidalari, atributiv aniqlovchining strukturasiga ko'ra turlari, aniqlovchi va aniqlanmishning o'zaro pozitsiyasi batafsil yoritilgan.

Olim o'z asaridaaynan atributiv aniqlovchini alohida urg'u berib o'rgangan. Uning fikricha, bu turdagi aniqlovchini izohlovchi va predikativ aniqlovchidan alohida ajratish uchun shartli ravishda atributiv aniqlovchi, deb atash kerak.⁵

Taniqli hind grammatisti Abdulhaq o'zining mashhur „قوائد اردو“ nomli asarining „اضافى“ (Sintaksis) bo'limida faqat qaratqich aniqlovchili birikma (مضاف الىه)ning ma'no jihatlariga to'xtagan. Olim qaratqich aniqlovchini „مضاف الىه“ va qaralmishni esa „مضاف“ deb nomlagan⁶. Abdulhaq otlarda son kategoriyasi („اسما كى تعداد“) bo'limida sanoq son bilan ifodalangan aniqlovchining o'z aniqlanmishi bilan moslashmasligini aytib, buni shu so'zda ko'plik mazmuni mujassam ekani bilan asoslaydi: اس يه گهوڑا ميں نه ايك هزار روپے ميں خريدا – اس (Men bu otni ming rupiyga sotib oldim. U yuz tilla tanga turadi) jumlasida aniqlovchili birikmada „ming“ sanoq soni bilan ifodalangan aniqlovchidan keyin doimo aniqlanmishning ko'plikda emas, aksincha birlikda turishini yozadi.

Yana bir pokistonlik olim doctor Ghulam Mustafa o'zining „جامع ال قواعد“ (Umumiy grammatika) asarining „Sintaksis“ bo'limida muallif negadir gap bo'laklari emas, so'z turkumlari haqida so'z yuritib, aniqlovchi emas, balki sifat atamasi bilan ish ko'radi. Ammo olim ayni aniqlovchining gapdagi vazifasi, uning aniqlanmishga nisbatan o'rni, ifodalanishi jihatlariga keng to'xtalgan⁷. U yuqorida nomi zikr qilingan olimning fikridan farqli o'laroq moslashuv masalasida sanoq son bilan ifodalangan aniqlovchidan keyin albatta ko'plikdagi ot bilan ifodalangan aniqlanmish kelishini aytadi. „ايك درجن كتب و رسائل“ – bir dyujina kitob va jurnallar. Bu jumlada „kutub o rasayl“ (kitoblar va jurnallar) arabcha ko'plik sondagi so'z qo'llangan. Ammo bu so'z arab tilidan kirgan siniq ko'plikdagi ot ekanini aytishimiz kerak.

⁵В. А. Чернышев. Синтаксис простого предложения в хинди.— М., Наука, 1970. 59-бет

مولوى عبد ال حق قواعد اردو ، انجمن ترقى اردو (بند) نئی دہلی ۲۰۰۳ء، ص ۶۵

ڈاکٹر غلام مصطفیٰ ، مکزی اردو بورڈ ، گلبرگ ، لاہور ، ۱۹۷۳ء، ص ۷۱۹۲

A. A. Давидова normativ urduga xos aniqlovchidan tashqari arab tilidan o'zlashib kirgan sifatlarning aniqlovchi vazifasida qo'llanilishini alohida ko'rsatib o'tgan, jumladan:

متحدہ - *birlashgan*

واقع - *joylashgan*

جمع - *to'plangan, yig'ilgan* kabilar.⁸

Shuningdek, muallif nisbiy sifatlarning yasalishiga to'xtalib, ularni ko'proq ي suffiksi bilan yasalishiga urg'u beradi. Odatda bu suffiks otga (قومی - *milliy*); yoki ravishga (باہری - *tashqi, tashqaridagi*) qo'shib nisbiy sifat yasaydi. U ayni shu sifatlarning atributiv aniqlovchi vazifasida qo'llanilishini ta'kidlaydi.⁹

Bundan tashqari muallif ot va vositali shakldagi infinitivga qo'shib, sifat yasovchi والا suffiksi haqida alohida to'xtaydi. Muallifning fikricha, bunday birikmalar ot+ کا poslelogli birikmalarga mazmunan teng keladi. Shuningdek, u والا li yasamalarning o'zgaruvchan sifat kabi jins, son va kelishikda o'zgarishini aytib o'tadi.¹⁰

Shuni ham ta'kidlash joizki, rus hindshunos olimlaridan yana biri З. М. Дымшиц boshqa olimlardan farqli o'laroq aniqlovchining semantik va sintaktik jihatlariga ko'ra 3 turga – atributiv aniqlovchi, predikativ aniqlovchi va yarim predikativ aniqlovchiga ajratgan.¹¹

Bunda olim predikativ hamda yarim predikativ aniqlovchilarni qaysi gap bo'lagiga bog'langaniga qarab turga ajratganini kuzatdik. "Urdu va hindiy tillarida aniqlovchi qaysi gap bo'lagi, ya'ni ega yoki vositasiz to'ldiruvchi bilan bog'langaniga qarab ega va vositasiz to'ldiruvchi bilan ifodalangan yarim predikativ va predikativ aniqlovchiga bo'linadi".¹²

⁸А. А. Давидова Учебник языка урду. М., Восточная литература, 2003. 349-bet

⁹О'shaasar – 249-bet

¹⁰О'shaasar – 137-bet

¹¹Дымшиц З. М. Грамматика языка урду. М., Восточная литература, 2001., 463-bet

¹²О'shaasar -464-bet

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – aniqlovchining turi bo'lgan atributiv aniqlovchining urdu tilida hamda o'zbek tilida ifodalanishi va ularni ikki til orasidagi farq va o'xshashliklarni tahlil qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ish oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- 1) Aniqlovchining urdu tillarida so'z turkumlari orqali ifodalanishini o'rganish;
- 2) O'zbek tilida aniqlovchining ifodalanishini tahlil qilish;
- 3) Urdu tilida atributiv aniqlovchining belgi-xususiyatlarini o'rganish;
- 4) Aniqlovchining turlarini belgilash;

Ilmiy ishning obyekti va predmeti. Mavzuning obyekti – urdu tilida hamda o'zbek tilida atributiv aniqlovchining ifodalanishini tahlil qilishdir. Mavzuning predmeti sifatida esa urdu tilidagi aniqlovchining belgi-xususiyatlarini o'zbek tili bilan qiyoslagandagi farqi va o'xshashliklari masalasiga oydinlik kiritish deb olindi.

Tadqiqot metodi. Ilmiy tadqiqotga urdu tili, shu bilan birga o'zbek tilida atributiv aniqlovchining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun tavsifiy, shuningdek, urdu hamda o'zbek tillaridagi atributiv aniqlovchini solishtirish, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot manbalari. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismini yozish uchun Maulaviy Abdulhaqning “قوائد اردو” asari, К.Гурпыning “Грамматика хинди” asari, В. А.Чернышевning “Синтаксис простого предложения” asari, З. М. Дымшицning “Грамматика языка хинди 1” asari, А. А. Давидовaning “Учебник языка урду” asarlaridan foydalanildi.

Shuningdek, asosiy qismni yozish uchun Mirza Muhammad Hodiy Rusvoning “امراؤجان ادا” romanidan foydalanildi.

Ishning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999yil 16avgustdagi 390-sonli Umumiy va o'rta

maxsus ta'lim davlat standartini tasdiqlash haqidagi qarorlari asos qilib olindi.

Ishning ilmiy yangiligi. Urdu va o'zbek tillarida atributiv aniqlovchining o'zaro farqlari, ayni paytda mushtarak jihatlari aniqlandi.

Ishning tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bobdan iborat asosiy qism, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida urdu va o'zbek tillarida aniqlovchi va uning belgi-xususiyatlariga oid ilmiy nazariy qarashlar tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy manbalarga tayanilgan holda atroflicha o'rganildi va ular orasidagi o'ziga xos jihatlarni misollar yordamida ko'rsatib berildi.

Ikkinchi bobda urdu hamda o'zbek tillaridagi atributiv aniqlovchining ifodalanishi tahlili qilindi.

Xulosa va takliflar qismida tadqiqot natijalaridan kelib chiquvchi asosiy taklif va mulohazalar umumlashtirildi.

ASOSIY QISM

1-BOB. URDU VA O'ZBEK TILLARIDA ANIQLOVCHINING BELGI-XUSUSIYATLARI VA TURLARI

Urdu tilida aniqlovchi gap qurilishida gapning boshqa bo'laklari singarilardan gapning har qanday bo'lagiga ergashib keladi va gap strukturasida ular bilan birga ishtirok etadi. Aniqlovchi o'zi tobe bo'lgan gap bo'lagining sifati, soni, materiali,

ijtimoiy holatini, kim yoki nimaga oidligi va boshqa xususiyatlarni izohlaydi. U fikr ifodasiga aniqlik kiritishda katta ahamiyatga egadir. Urdu tilida aniqlovchi xuddi sifat so'z turkumi singari predmetning quyidagi xususiyatlarini anglatishi mumkin:

1) Belgi- xususiyatiga ko'ra, masalan:

کمزور بڑھا - *zaif qariya*

کڑی چیز - *qattiq narsa*

لال رنگ - *qizil rang*

2) Materialiga ko'ra, masalan:

ریشمی کپڑا - *ipak mato*

سونے کی انگوٹھی - *tilla uzuk*

لکڑی کا گھر - *yog'och uy*

3) Paytiga ko'ra, masalan:

کل کا اخبار - *kechagi gazeta*

اگلے دن کا کام - *ertangi ish*

آج کی تاریخ - *bugungi sana*

4) O'rin- joyiga ko'ra, masalan:

یہاں کے لوگ - *shu yerlik odamlar*

افریقہ کا بھالو - *Afrika ayig'i*

دیہاتی باشندہ - *qishloq aholisi*

5) Qon- qarindoshligiga ko'ra, masalan:

چچیری بہن - *amakivachcha (qiz)*

ممیرا بهائی *xolavachcha (o'g'il)*

خالہ کی بیوی *xolaning kelini*

6) Kelib chiqishiga ko'ra, masalan:

ندی کا پانی *ko'l suvi*

براهمانی خاندان *brahman oilasi*

شیر کی آواز *sherning ovozi*

7) Qo'llanilishiga ko'ra, masalan:

سوٹ کا کپڑا *kostyumlik mato*

کشمیری زیورات *Kashmir taqinchoqlari*

پینے کا پانی *ichimlik suvi*

8) Biron narsaga tegishliligiga ko'ra, masalan:

ہمارے بچے *bizning bolalar*

باپ کا گھر *otaning uyi*

پھوپھی کا دولہا *ammaning kuyovi*

9) Soniga ko'ra, masalan:

پانچ کتابیں *beshta kitob*

چھ مہینے *oltita oy*

چار کاپیاں *to'rtta daftar*

10) Tartib raqamiga ko'ra, masalan:

دوسری منزل *ikkinchi qavat*

uchinchi poyezd - تیسری گاڑی

o'ninchi talaba - دسواں طالب علم

11) Bir butunning qismiga ko'ra, masalan:

uyning derazalari - گھر کی کھڑکیاں

ko'lining sohili - ندی کا کنارہ

12) Harakatdagi yoki holatdagi belgisiga ko'ra, masalan:

uchayotgan qushlar - اڑتی چڑیاں

yurayotgan mashina - چلتی ہوئی گاڑی

uxlayotgan bola - سویا ہوا بچہ

ishchi (ishlayotgan) odamlar - کام کرنے والے لوگ

13) Kishi va hayvonlarning tashqi belgisini, masalan:

zaif ko'zlar - کمزور آنکھیں

baquvvat stul - مضبوط کرسی

kasal podshoh - بیمار بادشاہ

ko'r tulki - آندھی لومڑی

14) Predmetning baholash belgisiga ko'ra, masalan:

kerakli yuk - ضروری بوجھ

foydali maslahat - فائدہ مند نصیحت

foydali mashg'ulot - مفید مشغل

غلط متن – *xatosi bor matn*

15) Qaysidir millatga yoki davlatga tegishlilikni:

فارسی زبان – *fors tili*

چینی جاتی – *xitoy millati*

– va yana boshqa ko'plab belgi- xususiyatlarni ham aniqlashi mumkin.

Aniqlovchi urdu tilida aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1) atributiv aniqlovchi

2) predikativ aniqlovchi

3) yarim predikativ aniqlovchi

Atributiv aniqlovchi ifodalagan belgi- xususiyat va uni ifodalovchi orasidagi munosabat bevosita bo'ladi. Bunday aniqlovchilar doim aniqlanmishga nisbatan prepozitsiyada bo'ladi. Masalan:

مسلا دھار بارش ہو رہی تھی – *Shiddatli yomg'ir yog'ayotgan edi*

میری اور تمہاری دوستی میرے لئے بہت اہم ہے
Oramizdagi do'stlik men uchun juda muhim

Yarim predikativ va predikativ aniqlovchi – belgi- xususiyati va uni ifodalovchi orasidagi munosabat to'g'ridan-to'g'ri emas, balki fe'l- kesim bilan ifodalangan fe'loldi aniqlovchisidir. Xususan, bunday munosabatlar atributiv-predikativ deb ham aytiladi. Yarim predikativ va predikativ aniqlovchi uchun ikki xil bog'lanish xosdir: birinchisi, uning belgisini anglatuvchi so'z bilan birga kelgan aniqlovchi; ikkinchisi, fe'l- kesim bilan birga kelgan aniqlovchi. Yarim predikativ va predikativ aniqlovchi kesim tarkibiga kiradigan va kirmaydigan turlarga bo'linadi.

Yarim predikativ va predikativ aniqlovchi bilan bog'langan aniqlanmish ot yoki ot+ کو poslelogli birikmasi bilan ifodalanadi. Yarim predikativ va predikativ aniqlovchilar bir vaqtda ham ega bilan yoki vositasiz to'ldiruchi bilan bog'lanadi, shuningdek, fe'l- kesim bilan ham bog'lanishi mumkin.

Urdu tilida aniqlovchi qaysi gap bo'lagi, ya'ni ega yoki vositasiz to'ldiruvchi bilan bog'langaniga qarab ega va vositasiz to'ldiruvchi bilan ifodalangan yarim-predikativ va predikativga bo'linadi.

Yarim predikativ aniqlovchi to'liq ma'noli fe'l, fe'l- kesim va ot- kesimli birikmalarda qo'llanadi. Yarim predikativ aniqlovchi fe'l- kesim va ot- kesimli birikmalarda qo'shimcha ma'no bildiradi. Yarim predikativ aniqlovchi va to'liq ma'noli fe'l, fe'l-kesim va ot- kesimli birikmalar o'rtasida odatda sintaktik bog'lanish bo'lmaydi. Chunki u to'liq ma'noli fe'llar hamda fe'l va ot- kesimli birikmalarga qo'shimcha ma'no berib, ularning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi. Gap tarkibida mazkur ot- kesimli birikmalar aniqlovchiga nisbatan gapda istalgan joyda kelishi mumkin. Istisno sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Holatni bildiruvchi fe'llar va " معلوم ہونا " - *" tuyulmoq, ko'rinmoq "* ma'nolarini ifodalovchi fe'llar bilan kelgan yarim predikativ aniqlovchilar, masalan:

وہ لڑکی مجھے کوئی گانا گاتی ہوئی لگی
O'sha qiz menga qandaydir qo'shiq kuylayotgandek tuyuldi. Yoki:

یہ عمارت انسانی ہاتھوں کی نہیں بلکہ باقاعدہ مصنوعی بنی ہوئی معلوم ہوئی
Bu imorat odam qo'li bilan emas, balki sun'iy ravishda qurilgandek ko'rindi.

2. O'timli fe'llar bilan kelgan to'g'ri to'ldiruvchi vazifasidagi yarim predikativ aniqlovchilar, masalan:

ہم اس لڑکے کو ہر دفع کوئی نہ کوئی کتاب پڑھتے ہوئے دیکھتے ہے
Biz har gal shu bolani biron-bir kitob o'qiyotganini ko'ramiz.

Bunday yarim predikativ aniqlovchilar gapda aniq belgilangan joyda keladi. Aniqlanmishga nisbatan postpozitsiyada bo'ladiva to'g'ridan-to'g'ri to'liq ma'noli fe'l-kesimga nisbatan prepozitsiyada turadi.

1. O'zgaruvchan sifat ega bilan yarim predikativ aniqlovchi vazifasida kelganda, jins va sonda moslashadi, masalan:

U bir o'zi kelgan edi; -وہ اکیلی آئی تھی

Samira tik turgancha tomosha qilayotgan edi. -سمیرا کھڑی کھڑی تماشا دیکھ رہی تھی

2. Aniqlovchi o'zgarmas sifat bilan ifodalanganda son va jinsda moslashmaydi:

Purna kun bo'yi xafa bo'lib o'tirdi; -پورنا دن بھر اداس بیٹھی رہی

Xonim haligacha behush yotar edi. -بیگم صاحبہ ابھی تک بیہوش پڑی تھی

3. Murakkab notugal sifatdosh bilan:

Shuni aytib, Laungi uyga ketib qoldi. -یہ کہتی ہوئی لونگی گھر میں چلی گئی

4. Murakkab tugal sifatdosh bilan:

ایک اور میز پر تین بڑھی سی میمن بیٹھی زور زور سے باتیں کر رہی تھیں

Boshqa bir stolda uchta qari ingliz ayollari o'tirgancha baqirib gaplashar edi.

Gapda bir egaga ikki va undan ortiq yarim predikativ aniqlovchi ergashib kelgan bo'lishi mumkin. Masalan:

U -وہ جا رہی ہے جا رہی ہے ایک سنسان سڑک پر اکیلی روتی جا رہی ہے

ketyapti. Bo'm- bo'sh ko'chada yolg'iz yig'lab ketyapti.

Bu misolda yarim predikativ aniqlovchi sifat va murakkab notugal sifatdosh bilan ifodalangan.

5) Shuningdek, yarim predikativ aniqlovchi bir necha murakkab notugal sifatdosh bilan ifodalanadi:

Ayollar to'dasi -عورتوں کی ٹولی تالیاں پٹتی، شور مچاتی، ناچتی گاتی اندر آ گئی

qarsak chalgancha, shovqin solgancha, raqsga tushgancha uyga kirib kelishdi.

To'g'ri to'ldiruvchiga ergashib kelgan yarim predikativ aniqlovchi odatda sifat, shu bilan birga, juft va takroriy sifatli birikmalar, murakkab notugal va tugal sifatdoshlar va arab-fors tillaridan o'zlashgan sifatdoshlar bilan ifodalanadi.

Urdu tilida o'zgaruvchan sifat va sifatdosh bilan ifodalangan yarim predikativ aniqlovchi aniqlanishga nisbatan prepozitsiyada bo'ladi va moslashuv quyidagicha yuz beradi:

1. Agar to'g'ri to'ldiruvchi to'g'ri shaklda kelgan bo'lsa, sifat va sifatdosh u bilan jins va sonda moslashadi. Masalan:

Umid uning - امید نے اس کے چہرے پر مسرت کے سرخ پھول کھلتے دیکھے...
yuzida quvonch porlayotganiniko 'rdi (quvonch gullarini ko 'rdi);

2. To'g'ri to'ldiruvchi “کو” poslelogi bilan kelgan bo'lsa, jins va kelishikda u bilan umuman moslashmaydi. Masalan:

Men Shakilani - میں نے شکیلہ کو حسب معمول باغ میں نیک نیت پڑھتے پایا
odatdagidek bog'da "Yaxshi niyat"ni o'qiyotganini ko 'rdim;

Men bu qizni hech qachon xursand - میں نے اس لڑکی کو کبھی خوش نہیں دیکھا
ko 'rmaganman.

3. Olmosh obyektli kelishikda bo'lsa, sifatva sifatdosh bilan ifodalangan bo'lsa, u bilan umuman moslashmaydi. Masalan:

Ikki yil ichida - دو سال عرصے میں ہم نے انہیں صرف تین مرتبہ ہنستے دیکھا
biz uni faqat uch marta kulganini ko 'rdik;

Dilbar bizning - جب کبھی دلبر ہمارے ہاں آتی ہم اسے ہششش ہششش ہی پاتے
uyimizga kelganida, biz (har doim) uni sho 'x-shodon ko 'rardik.

Predikativ aniqlovchi bog'langan o'timsiz fe'l bilan va to'liq mustaqil ma'noga ega bo'lmagan o'timli fe'l bilan ifodalanadi. Predikativ aniqlovchi vazifasida kelgan so'z fe'lga nisbatan aniq, konkret ma'noni beradi. Predikativ aniqlovchi fe'l bilan kelganda, ot- kesim birinchi bo'lak bilan qo'llanadi. Bunda predikativ aniqlovchi bosh bo'lakdagi ma'noni tashuvchi hisoblanadi. Predikativ aniqlovchi odatda, bevosita fe'ldan oldingi so'zni aniqlab keladi.

Predikativ aniqlovchibarcha mustaqil ma'noli so'zlar, poslelogli mustaqil ma'noli so'zlar, والا suffikliso'z birikmalari, juft va takroriy sifat, sifatdosh va boshqalar bilan ifodalanadi.

Predikativ aniqlovchi vazifasidagi barcha o'zgaruvchan so'zlar ega bilan shaxs va jinsda (muzakkar jinsda) moslashadi, masalan:

1) o'zgaruvchan sifat bilan:

میں تو بالکل اچھا ہوں — *Men butunlay yaxshiman.*

2) o'zgarmas sifat bilan:

گھر کی ساری کھڑکیاں بند رہتی تھیں — *Uyning barcha oynalari yopiq qolgan edi.*

3) mustaqil ma'noli so'zlar bilan:

یہ شیخ جی ساٹھ کے تھے — *Bu shayx 60 yosh da edi.*

4) infinitiv + poslelogli birikma bilan:

کوئی بستر سے اٹھنے کے قابل نہ رہا — *Hech kim o'rnidan tura olmas edi*

5) juft sifat bilan:

اس کی مونچھیں بڑی بڑی تھیں — *Uning mo'ylovi juda uzun edi*

6) takroriy sifatdosh bilan:

ہککو پڑھی لکھی بالکل نہیں تھیں — *Hakko yozish-o'qishga umuman yo'q edi.*

To'g'ri to'ldiruvchi bilan predikativ aniqlovchi ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, poslelog bilan kelgan mustaqil ma'noli so'zlar bilan qo'llanishi mumkin, masalan:

ان تین مہینوں کے لئے مجھے اپنا ڈاکٹر بنا لو — *Shu uch oyga meni o'z vraching qilib ol;*

باہر آتے ہی اس نے اپنے کو بڑا بزدل محسوس کیا — *Tashqariga chiqishi bilanoq u o'zini o'ta qo'rqqoq his qildi;*

لوگ مجھے بہت اچھا سمجھتے ہیں — *Odamlar meni juda yaxshi deb hisoblashadi;*

Bosh vazir bu...as دورے کو انتہائی کامیاب اور مفید قرار کیا
tashrifni muvaffaqiyatli va foydali bo'lganini aytdi;

Nahotki sen meni shunchalik tuban
deb o'ylasang? کیا تم مجھے بالکل ہی گزرا سمجھتی ہو؟

Atributiv aniqlovchining tuzilishiga ko'ra turlari. Urdu tilida atributiv aniqlovchining uch xil turi aniqlangan. Atributiv aniqlovchilar tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab va qo'shma bo'ladi.

Sodda aniqlovchi. Sodda aniqlovchi – birgina so'zdan iborat bo'lgan aniqlovchidir. Bunda u aniqlanmishga yagona aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan:

e'tiborga loyiq haykal – قابل دید مورتی

hurmatli mehmon – عزیز مہمان

xomush chehra – پریشان چہرہ

Sodda aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1) mustaqil ma'noli so'zlardan biri bilan:

kasal odam – بیمار آدمی

to'rtta stol – چار میزیں

2) mustaqil ma'noli so'zning kichraytirish va erkalash sa yuklamasi yoki ka
poslelogli birikmasi bilan:

ko'kimtir rang – نیلا سا رنگ

kumush qoshiq – چاندی کا سا چمچ

Birgina sifat bilan ifodalangan sodda atributiv aniqlovchi sa yuklamasi bilan kelganda, sa yuklamasi aniqlovchiga belgi-xususiyatning tugallanmaganlik ma'nosini beradi. sa yuklamasi o'zgaruvchan sifatlar singari aniqlanmish bilan moslashadi, ya'ni sa yuklamasi ham ا, ے, va ی ga o'zgarishi mumkin, masalan:

bemaza suhbat – پھیکی سی بات چیت

ہلکے سے بوجھ *yengilgina yuklar*

سادہ سا لفظ *oddiygina so'z*

سا yuklamasi sifatdosh bilan ham kelishi mumkin. Bunda sa yuklamasi predmetning belgi- xususiyatini alohida ajratib ko'rsatadi, masalan:

اڑتی سی نگاہیں *suzilib qarashlar*

Murakkab aniqlovchi. Murakkab aniqlovchi bitta mustaqil ma'noli so'zva mustaqil ma'noga ega bo'lmagan u yoki bu poslelog yoki yuklamadan tashkil topadi. Bu aniqlovchi o'zi alohida mustaqil ravishda atributiv aniqlovchi vazifasida kela olmaydigan ka poslelogi yoki والا morfemasi bilan kelgan ot, ravish yoki infinitivli birikma bilan ifodalangan bo'ladi. Murakkab aniqlovchilar quyidagicha ifodalanadi:

1) miqdor-daraja ravishi va sifatli birikma bilan:

تم بہت اچھا آدمی ہو نادر *Nodir, sen juda yaxshi odamsan;*

اُنندہ چار پانچ روزخالا میں گزرے *O'tgan to'rt- besh kun qandaydir yolg'izlikda o'tdi;*

اس کے باپ نے دن دگنی اور رات چوگنی محنت کی *Uning otasi qo'li qo'liga tegmay mehnat qildi;*

2) ot+ ka poslelogli birikma bilan:

حلالہ کی ماں کی حیرت کی کوئی انتہا نہ تھی *Hilolaning onasining hayrati cheksiz edi;*

میرے مکان کی گھنٹی بجی *Uyimning qo'ng'irog'i chalindi.*

sa yuklamasi ham kelishi mumkin. sa yuklamasi aniqlovchi tarkibida ishtirok etib, bir predmetning belgi-xususiyati boshqasiga solishtirilayotganda qo'llanadi, masalan:

باتھی کا سا کان *filnikidek quloqlar*

گڑیا کی سی چھوٹی *qo'g'irchoqdek kichkina*

tulkidek ayyor – لومڑی کا سا لالچی

3) erkalash-kichraytirish yuklamasining otli birikmasi bilan:

Ilk bor men uning – پہلی مرتبہ میں نے ان کٹورے سی آنکھوں کو جھلملاتے دیکھا
yonib turgan ko'zlariga tikilib qaradim;

bolalardagi kabi soddalik. – بالکل بچوں کا سا بھولاپن

4) erkalash-kichraytirish yuklamasining sifat+otli birikmasi bilan:

yangi buyurtma qilingan xatlar – نئی آرڈروں والی چٹھیاں

5) qiyosiy darajadagi sifat+poslelog+sifatturidagi so'z birikmasi bilan:

Bu – یہ کوٹھڑیوں والے تو پھر بھی اوروں سے اچھی حالت میں ہیں
turarjoylarning boshqalariga qaraganda holati yaxshi.

6) orttirma darajadagi poslelogli ikki sifat takrori bilan:

- میں سوچتا ہوں کہ یورپ جا کے حسین سے حسین لڑکیوں سے ملونگا
O'ylashimcha, Yevropaga borib, men eng chiroyli qizlar bilan ko'rishaman.

7) yuklamali mustaqil ma'noli so'zlar bilan yoki nisbiy olmoshi va sifat bilan:

mendek yaramas kelin – مجھ سی نکمی بہو

sendek soddadil qiz – تم جیسی بھولی لڑکی

8) biri mustaqil, ammo ikkinchisi mustaqil qo'llana olmaydigan juft sifat bilan:

top-toza uy – صاف ستھرا گھر

kir-yag'ir kiyim – میلہ کچیلہ کپڑا

9) taxminni ifodalovchi sanoq son bilan:

uch-to'rtta bola; bir necha bola – تین چار لڑکے

10) uzunlik, o'lchov, og'irlik, miqdorni bildirgan sanoq son + ot birikmasi bilan:

پانچ ٹن لوہا - *beshtonna temir*

تین میٹر گھڑا - *uch metr gazlama*

کئی درجن کیلے - *bir necha dyujina banan*

11) o'lchov birliklari: og'irligi, uzunligi, vaqt oralig'ini anglatuvchi ot, og'irlik, o'lcham, yoshi biron sonni bildiruvchisifat bilan:

دو ٹن وزنی بوجھ - *ikki tonnalik yuk*

کئی کلومیٹر لمبا راستہ - *bir necha kilometrlik uzun yo'l*

پانچ میٹر اونچا گھر - *besh metrlik baland uy*

ٹیڑھ میٹر چوڑا کپڑا - *eni bir yarim metrlik mato*

پانچ برس چھوٹی لڑکی - *besh yoshli kichkina qiz*

Qo'shma aniqlovchi. Qo'shma aniqlovchi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. Urdu tilida qo'shma aniqlovchilarning bir necha turi mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Juft sifat bilan, masalan:

میٹھی میٹھی شفتالو - *shirindan-shirin shaftoli*

لمبے لمبے مندر - *uzundan-uzun ibodatxona*

2. O'zlik olmoshi bilan, masalan:

اپنا اپنا محل - *o'zining saroyi*

3. Ikki o'zakli sifatdosh bilan:

پڑھے لکھے لوگ - *savodli kishilar*

4. Forscha prefiksli juft sifat bilan:

رنگ برنگا پھول - *rang-barang gullar*

5. Bir o'zakli takroriy sifatdosh bilan (ulardan biri o'timsiz fe'l bo'lib, unga qo'shilib kelgan ikkinchi qismi o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'ladi):

بنا بنایا گھر - *tayyor uy*

سنائی کہانیاں—*quloqqa chalingan ertaklar*

6. Taxmin ma'nosini beruvchi ikki son birikmasi bilan:

دو چار چوکیدار — *bir-ikkita qorovul*

تین پانچ احاطہ — *uch-to 'rtta hovli*

7. O'lchov birliklari ma'nosini beradigan otlar bilan:

پانچ سیر پنیر — *beshter pishloq*

بارہ درجن کیلے — *12 dyujina banan*

دو ٹن چاول — *ikki tonna guruch*

سات فٹ اونچی دیوار — *yetti fut balandlikdagi devor*

ایک فٹ لمبا لڑکا — *bo 'yi bir fut keladigan baland bo 'yli yigit*

1.2. O'zbek tilida aniqlovchining belgi-xususiyatlariva turlari. O'zbek tilida aniqlovchi biror predmet, voqea- hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini - rang-tusi, hajmi, shakli, xossa-xususiyatlari, vazni, mazasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, aniqlovchi gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki biron narsa, buyumning boshqasiga tegishli ekanligini bildiradi. Aniqlovchi gap tarkibida aksari egaga bog'lanadi. Aniqlovchi shuningdek, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham tobe bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida aniqlovchilar 2 turga ajratiladi. Bular:

1. Sifatlovchi aniqlovchi

2. Qaratqich aniqlovchi

Sifatlovchi aniqlovchi predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, nechanchi?, necha?, qayerdagi? singari so'roqlarga javob bo'ladi. Sifatlovchi aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish o'zaro bitishuv yo'li bilan bog'lanadi, masalan: *qizil gul, beshinchi sinf, oq soqolli odam, o'qish kitobi, kumush qoshiq, yuqori hosil beradigan bug'doy* kabi.

Qaratqich aniqlovchi biror narsa o'ziga tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va kimning?, nimaning?, qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak qaralmish deb aytiladi. Qaratqich va qaralmish moslashuv orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi, masalan: *Karimning kitobi, o'rik daraxtining guli singari.*

Aniqlovchi aniqlanmishdan anglashadigan ma'no doirasini ko'pincha kengaytiradi. Masalan, *yangilikni qo'llab-quvvatlash – muqaddas burchim.* Bunda har qanday *burch* emas, *muqaddas burch* mazmuni anglashiladi. Shuningdek, aniqlovchilar aniqlanmishning asliy ma'nosini chegaralamagan holda ham qo'llanadi. Bunday holda odatda aniqlovchi aniqlanmishning ma'nosini aniqlashtiradi, unga xos belgini anglatadi: *go'zal Toshkent, yuksak Tyan-shan, hayotbaxsh Amu.*

Aniqlovchi so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalangan aniqlanmishga bog'lanadi. Uni aniqlovchining har ikki turi aniqlashi mumkin, masalan:

*Men ham **jimjit** ko'chada bir bormoqdaman.*

*Ombor tomonda **eshikning qulfi** taqilladi.*

***Go'zallik, do'stlik, mehr-muhabbat timsoli** gullar qiyg'os ochilgan edi.*

O'zbek tilida aniqlovchili birikmaga bog'langan aniqlovchilar sifatlovchi yoki qaratqich bo'lishi mumkin.

1. Sifatlovchili aniqlovchili birikma aniqlanmishlar:

*Haligi **tushkun kayfiyat, kechagi voqealar** hozirgina ko'rgan tushday yoddan chiqib ketdi.*

*Said bahorgacha **ko'p yangi kulfatlarkeltirdi.***

*Pidjagining tagidan kiyilgan **oq sadaf tugmali rangdor katak** ko'ylak arzon kastyumga juda mos kelgan.*

2. Qaratqich aniqlovchili birikma aniqlanmishlar:

***Ko'chaning** boshida bolali bir ayol ko'rindi;*

***Ularning** qonli qo'llarini ko'rib seskanib ketdi;*

***Vatanparvarlikning** tarbiyaviy ahamiyati juda katta.*

Qaratqich aniqlovchilar shakl jihatdan birikma aniqlanmishning bosh so'ziga bog'langandek ko'rinsa ham, mazmunan butun birikmaga tegishli bo'ladi. Ana shunday birikma aniqlanmishlar tarkibida uyushiq aniqlovchilar ham bo'lishi mumkin. Masalan:

*Ba'zan **uninglo'nda va aqlli** gaplarini eshitib, Gulbahor hayratda qolardi.*

Aniqlovchi uyushiq bo'lakli tarkibning hamma qismiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan:

***Ilmga chanqoq** o'quvchilar, talabalar va bog'cha bolalari sahnaga peshvoz chiqishdi;*

***Tog' cho'qqilari, yonbag'irlaridagi xushqomat** archalar, yong'oq va boshqa daraxtlar chiqib kelayotgan quyosh nurlarida zardek tovlanib ketdi;*

*Bu gaplar **ayollarning, erkaklarning**, ayniqsa, **keksalarning** yuragida abadiy o'rnashib qoldi.*

Aniqlovchi ba'zan nisbiy yoki asliy sifatlarni ham aniqlaydi, masalan:

***Sutga cho'miltirib olganday oppoq** yuzlari hammani lol qoldirdi;*

*Bolaning ko'zlari ham **onasinikiday** qop-qora edi;*

*Hayotimiz **shunday behavotir, shunday ajoyib va chiroyli**ki, qo'llarimiz hamisha duodan bo'shamaydi.*

Aniqlovchilar shakllanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) belgisiz aniqlovchi, 2) belgili aniqlovchi. Birinchi holatda aniqlovchida uning aniqlanmishga sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi alohida shakl bo'lmaydi, ikkinchisida esa alohida shakl, ya'ni qaratqich kelishigi “-ning” qo'shimchasi qo'llanadi.

Har bir shakldagi aniqlovchining ifoda materiali so'z yoki so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi mumkin.

Bir so'zli aniqlovchilar tub, yasama so'zlar orqali ifodalangan aniqlovchilardir. Har qanday bir so'z aniqlovchi biror so'z turkumiga mansub bo'ladi. Binobarin bir so'zli aniqlovchilar haqida gap borganda, ularning qanday shaklda qaysi so'z turkumi orqali ifodalanishlari hamda bajargan vazifalari to'g'risida fikr yuritish ma'quldir.

Bir soʻzli aniqlovchilik vazifasini bajarganda, ikki xil shakllanadi: belgisiz va belgili. Shuning uchun ularni ikkiga boʻlib qaraymiz: 1) belgisiz bir soʻzli aniqlovchilar, 2) belgili bir soʻzli aniqlovchilar.

Belgisiz bir soʻzli aniqlovchilar ikki xil aniqlovchili konstruksiyada koʻrinadi. Birinchisida aniqlovchining aniqlanmish bilan munosabatida maxsus bogʻlovchi affiks qatnashmaydi: har ikki komponentda ham ularning aniqlovchilik va aniqlanmishlik aloqasini ifodalashga xizmat qiluvchi affiks boʻlmaydi. Maʼno jihatdan bir-biriga bogʻliq boʻlgan ikki qismning biri oldin kelib, hech qanday bogʻlovchi affiks olmay, oʻzidan keyingi soʻzga yoki soʻzlar birikmasiga tobe boʻladi.

Bunday aniqlovchilar koʻpincha sifat orqali ifodalanadi. Shuningdek sifatdash, son, olmosh, ravish, ot singari soʻz turkumlari ham belgisiz bir soʻzli aniqlovchining ifoda material boʻladi.

Sifat orqali ifodalangan bir soʻzli aniqlovchilar aniqlanmishning rang-tus, harakat, xususiyat, hajm, taʼm, oʻrin yo paytga mansublik kabi xususiyatlarini ifodalaydilar, masalan:

*Gulistonda boʻlib oʻtgan tadbirda nuroniylar **ezgu niyatlar** qildilar;*

*Koʻchalarda **dahshatli jang** davom etmoqda edi;*

***Katta** xizmat, **behisob** ish, **qiyin** texnika, boshida qanchadan- qancha tashvish – oson emas.*

Bosh kelishikdagi ot oʻz maʼnosi yoki xarakterli belgisi asosida boshqa biror otni izohlaydi, aniqlaydi. Shu maʼno funksiyasiga koʻra u aniqlovchi boʻlib kelib aniqlanmishni material, oʻxshatish yoki xoslanish singari maʼno jihatlaridan aniqlaydi. Shuningdek u goho aniqlanmishning qanday oʻringa mansubligi yoki qaysi paytga oidligini ham bildiradi. Bu tip aniqlovchilar, asosan turdosh otlardan boʻladi, biroq har qanday ot ham bir aniqlovchi boʻlib kelavermaydi. Shu bilan birga ayrim otlarning aniqlovchi vazifasida kelishi uchun maʼlum bir shart-sharoit zarur, masalan:

*... lekin unga yaqinlashib **bir ogʻiz soʻz** soʻrashga imkon topolmadi.*

Bunda *ogʻiz soʻzi* bir soʻzisiz aniqlovchi boʻla olmaydi.

Aniqlanmishni material jihatidan aniqlash aniqlovchining o'z ma'nosi asosida yuzaga keladi va bunday turli ma'no ottenkalari bo'ladi: *kumush qoshiq, oltin soat* kabi.

Bu xil aniqlovchining boshqa turida otning xarakterli belgisi asosida boshqa bir otning xususiyati ochiladi. Masalan: ***oltin*** *yaproq, oltin yigit, po'lat iroda, anor yuz* kabi tarkiblardan birinchi misoldagi *oltin* so'zi o'z rangi asosida, ikkinchi misolda esa asillik sifati asosida, uchinchi misolda *po'lat* so'zi mahkamlik va mustahkamlik xususiyatlari asosida, to'rtinchi misolda esa shakl va rangi asosida *anor* aniqlovchi bo'lib kelgan. Demak, bunday o'rinlarda ot o'z belgisi asosida aniqlovchilik vazifasini bajaradi. Aniqlanmishni xoslik jihatdan aniqlash aniqlovchi anglatgan predmetga aniqlanmishning xoslanganini ifodalaydi, masalan:

*Kosani olib, **katta yog'ochqoshiq** bilan shoshib-pishib ichdi.*

***Yog'och** karovot, stol bilan kursi ham topib keltirib berdilar.*

*Axir, uning **oltin** boshi, sihati, kuchi-quvvati xalqniki-ku!*

Belgisiz bir aniqlovchining ikkinchi xilida aniqlovchining maxsus bog'lovchi affiksi bo'lmaydi, aniqlanmishda esa egalik affiksi bo'ladi. Bunday aniqlovchi vazifasida ko'proq turdosh ot, ba'zan atoqli ot qo'llanadi. Shuningdek, o'zlik olmoshi, infinitiv, ba'zi otlashgan so'zlar ham goho belgisiz bir aniqlovchi bo'lib keladi.

Bu turdagi aniqlovchining aniqlanmishi har vaqt uchinchi shaxs egalik affiksi bilan kelib, ma'lum predmetning aniqlovchi orqali ifodalangan boshqa predmetga qarashli ekanini bildiradi, masalan:

*Qiz **o'z ovozi**ni boshqalarga uzoqdan eshittirishi ham gunoh...*

***Dono** so'zi – **ishning** ko'zi.*

Demak, bir so'z bilan vujudga kelgan bu xil aniqlovchi bilan aniqlanmish aloqasi uchinchi shaxs egalik affiksi vositasida yuzaga keladi. Shuningdek, qismlarning yonma-yon kelishi ham shu aloqani yuzaga keltiruvchi vositalardan hisoblanadi, aks holda ular o'rtasida aloqa bo'lmaydi. Masalan: *shahar ko'chasi*

tarkibi orasiga boshqa bir so'z qo'shib bo'lmaydi (*shahar go'zal ko'chasi* kabi) bunday aniqlovchilar ba'zan *-lar* affiksi bilan ham uchraydi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, urdu tilida aniqlovchi bevosita sifat so'z turkumi bilan bog'liq. Shu jihatidan bilan o'zbek tilidagi aniqlovchi urdu tilidagi aniqlovchi bilan o'xshashdir. Biroq butunlay bir xil deyish noto'g'ri.

Ishni tahlil qilish jarayonida ikki tildagi farqlar ham kuzatildi. Keltirilgan qoida va misollardan kelib chiqadigan bo'lsak, urdu tilida aniqlovchilar belgi-xususiyati jihatidan o'zbek tilidagi aniqlovchi bilan qisman o'xshash. Lekin aniqlovchining turlarida ba'zi bir istisnolar mavjud.

Shuni e'tiborga olish kerakki, hindshunos rus olimlar urdu tilida aniqlovchining ma'nosi hamda sintaktik munosabatiga ko'ra, shuningdek, tuzilishiga ko'ra turlarga ajratishgan. Ammo o'zbek tilshunoslari aniqlovchining sintaktik shakllanishiga ko'ra hamda ifoda maqsadiga ko'ra turlarga ajratishga muvaffaq bo'lishgan.

Bundan tashqari, urdu tilida aniqlovchilar aniqlanmish bilan o'zaro jins, son hamda kelishikda moslashadi. O'zbek tilida esa bunday moslashuv mavjud emas. Aksincha, o'zbek tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Bu kabi misollarni biz aniqlovchining tuzilishiga ko'ra turlarida ko'rishimiz mumkin. Ammo ishni tahlil qilish jarayonida o'zbek tilida ham moslashuv usuli orqali birikuvni ham kuzatdik, ya'ni qaratqich aniqlovchi o'z navbatida qaralmish bilan moslashuv orqali birikib, faqatgina shaxs va sonda o'zaro moslashadi. Shu bilan birga moslashuv jarayonida *-ning* affiksi tushib qolish holatlari ham kuzatildi.

Shuningdek, urdu tilida yuklama va posleloglar bilan ham aniqlovchining yasallishini ko'rib chiqdik. O'zbek tilida esa bu kabi hodisalarni faqatgina qaratqich aniqlovchida kuzatdik, xolos. Ammo bu ikki tildagi turli hodisalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Bunda, ya'ni urdu tilida yuklama, morfema va poslelogli

birikmali aniqlovchilar soʻz semantikasiga hamda sintaktik jihatlariga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida esa aksincha, egalik affiksini olgan aniqlanmish tegishlilikni, qarashlilikni anglatish bilangina chegaralanadi.

Yuqoridagi hindshunos rus olimlarining fikrlariga koʻra, urdu tilida predikativ va yarim predikativ aniqlovchi ikki xil bogʻlanishga ega: ulardan biri, uning belgisini anglatuvchi soʻz bilan birga kelgan aniqlovchi boʻlsa, ikkinchisi, feʼl- kesim bilan birga kelgan aniqlovchi hisoblanadi. Demak, shundan koʻrinib turibdiki, aniqlovchilar kesimning aynan bir qismi boʻlib ham kelishi mumkin. Oʻzbek tilidagi bunday hodisa kam mahsulligi bilan urdu tilidan ajralib turadi. Bir jihatni unutmaslik kerakki, agar aniqlovchi feʼl oldidan ish-harakatni anglatib kelsa, u holda odatdagidek aniqlovchi oʻz oʻrnini holga boʻshatib beradi. Aksincha, belgi-xususiyatini anglatib kelsa, u holda aniqlovchilik vazifasini bajarishi kuzatilishi mumkin.

2-BOB. URDU VA OʻZBEK TILLARIDA ATRIBUTIV ANIQLOVCHINING IFODALANISHI

2.1. Urdu tilida atributiv aniqlovchining ifodalanishi. Aniqlovchi turli soʻz turkumlari bilan ifodalanadi. Sifat, kishilik olmoshi, sifatdosh, son soʻz turkumlari uchun atributiv aniqlovchi vazifasida kelish funksional hisoblanadi. Bundan tashqari aniqlovchi vazifasidaboshqa soʻz turkumlari – ot, infinitiv, ravishlarning qoʻshimcha leksik- grammatik vositalar – posleloglar va morfemali birikmalari qoʻllanilishi mumkin.

Sifatning vazifasi predmet yoki shaxsni anglatgan otning belgisini aniqlab kelishdir. Aniqlovchi, eng avvalo, sifat bilan ifodalanib keladi. Sifat soʻz turkumining sintaktik vazifasini aniqlovchi bevosita bajaradi. Masalan:

مزیدار مچھلی – *mazali baliq*

امیر آدمی – *boy odam*

اونچی آواز – *baland ovoz*

Urdu tilida atributiv aniqlovchi bildirgan belgi- xususiyat va uni ifodalovchi orasidagi munosabatlar bevosita bo'ladi. Atributiv aniqlovchi ot va otlashgan so'zlar bilan birikadi. Bunday aniqlovchilar doim aniqlanmishga prepozitsiyada bo'ladi. Masalan:

وہ مسکراتی ہوئی لڑکی اگلی سڑک پر رہتی ہے
Anavi kulayotgan qiz keyingi ko'chada yashaydi

عمدہ قالین پر شاندار دسترخوان پچھا ہوا تھا
Bejirim gilamda dabdabali dasturxon yozilgan edi

ہارون رشید بہت ہی مشہور خلیفہ تھے
Horun ar-Rashid juda ham mashhur xalifa edi

Asliy sifat bilan ifodalanagan atributiv aniqlovchilar predmetlar faqatgina belgi-xususiyatini, tarkibini ko'p yoki kam darajada ekanligiga qarab solishtirilmaydi, balki bir xil yoki teng darajadagi predmetning belgi-xususiyatini yoki tarkibini ham solishtirishi mumkin. Bir xil darajadagi predmetlarning qiyoslanishi "کی طرح" - "ga o'xshab, xuddi shunday, -dek" murakkab poslelogi bilan ifodalanadi, bundan tashqari "جیسا" - "ga o'xshab, xuddi shunday, -dek", nisbiy olmoshi, "سا" yuklamasi va boshqalar yordamida ham ifodalanishi mumkin, masalan:

ہماری دوستی فولاد کی طرح مضبوط ہے
Bizning do'stligimiz po'latdek mustahkam

پاکستان جیسا بڑا شہر ہے
Pokistonga o'xshagan katta shahar

تجھ سا کمزور لڑکا
Xuddi senga o'xshagan zaif bola

Odatda moslashgan aniqlovchilar quyidagi so'z turkumlariva so'z birikmalar bilan ifodalanadi:

1) o'zgaruvchan sifat bilan, masalan:

دھیمی آواز - *mayin ovoz*

بڑا ملک - *katta mamlakat*

چھوٹی لڑکی - *kichkina qiz*

2) ko'rsatish olmoshi, so'roq olmoshi, nisbiy olmosh va noaniq olmosh bilan, masalan:

ان لڑکوں میں – *u bolalar orasida*

یہ گھر – *bu uy*

کتے لڑکے – *nechta bola*

کونسی میز – *qaysi stol*

کوئی تصانیف – *qandaydir asar*

3) tartib son bilan, masalan:

آٹھویں ڈبے میں – *sakkizinchi vagonda*

پہلی کلاس – *birinchi sinf*

ساتویں الماری – *yettinchi shkaf*

4) murakkab notugal sifatdosh bilan, masalan:

ہنستی ہوئی لڑکی – *kulayotgan qiz*

آنے والے مسافر – *kelayotgan yo'lovchi*

کھیلتے ہوئے بچے – *o'ynayotgan bolalar*

5) poslelogli so'z birikmasi bilan yoki turli o'zgaruvchan so'zlar bilan:

گھر کا کام – *uy ishi*

اس کی کاپی – *uning daftari*

لکھنے کی میز – *yozuv stoli*

یہاں کی عورت – *shu yerlik ayol*

نہایت خاموش قسم کا آدمی – *o'ta kamgap odam*

6) turli mustaqil ma'noli so'zlar bilan yoki والا suffiksli so'z birikmasi bilan, masalan:

bolali odam - بچوں والا آدمی

u yerlik odamlar - وہاں والے لوگ

mallasoch qiz - سنہرے بالوں والی لڑکی

7) yuklamali turli mustaqil ma'noli so'zlar bilan, masalan:

oy(-dek) yuzli - چاند سا چہرہ

kichkina o'rindiq - چھوٹی سی پلنگڑی

sendek qiz - تجھ سی لڑکی

Agar moslashgan aniqlovchi ikki yoki undan ortiq aniqlanmish bilan bog'lansa, va ular turli jinsda kelsa, unda aniqlovchi odatda o'ziga yaqin turgani bilan moslashadi, masalan:

bizning o'g'il-qizlarimiz - ہمارے لڑکے اور لڑکیاں

Demak, sifat, sifatdosh yoki kishilik olmoshi bilan ifodalangan moslashgan aniqlovchi aniqlanmish bilan asosan jinsda moslashadi.

Aniqlovchi o'zi tobe bo'lib kelgan muzakkar jins, birlikdagi aniqlanmish bilan faqatgina jinsda emas, balki son va kelishikda ham moslashadi, masalan:

yengil o'rindiq (muzakkar jins, birlik, bosh kelishik) - ہلکا صوفہ

muzakkar jins, birlik, vositali kelishik - ہلکے صوفے کا (کو، میں، سے، تک)

Aniqlovchi o'zi tobe bo'lib kelgan so'z muzakkar jinsva ko'plikda bo'lsa, u aniqlanmish bilan jins va sonda moslashadi, masalan:

bo'sh idishlar (muzakkar jins, ko'plik, bosh kelishik) - ڈھیلے برتن

muzakkar jins, ko'plik vositali kelishik - ڈھیلے برتنوں کا (کو، میں، سے، تک)

Aniqlovchi o'zi tobe bo'lib kelgan so'z muannas jinsda bo'lsa, unda barcha kelishik va songa bitta shaklda bo'ladi, masalan:

kulayotgan qiz - مسکراتی لڑکی

kulayotgan qizning – مسکراتی لڑکی کا (کو، میں، سے، تک)

kulayotgan qizlar – مسکراتی لڑکیاں

kulayotgan qizlarning – مسکراتی لڑکیوں کا (کو، میں، سے، تک)

Aksincha ko'rsatish, so'roq, noaniq olmoshlarning aniqlovchi vazifasini bajaruvchi shakli grammatik jins kategoriyasini ifodalay olmaydi, biroq aniqlanmish so'zning son va kelishik kategoriyalarini aks ettirishi mumkin.

Urdu tilida “*bu, bular* – یہ” va “*u, ular* – وہ” ko'rsatish olmoshlari faqat son va kelishik kategoriyalarini ifodalab keladi, masalan:

u, bu – یہ *u, o'sha* (birlik, bosh kelishik)

ular, bular – یہ *ular, o'shalar* (ko'plik, bosh kelishik)

u, bu اس *u, o'sha* (birlik, vositali kelishik)

ular, bular ان *ular, o'shalar* (ko'plik, vositali kelishik)

so'roq olmoshlari bu shaklda faqat bosh kelishikda keladi, biroq bu olmoshlar vositali kelishik shaklida quyidagi shaklni oladi, masalan:

a) bosh kelishik: *narxi qancha?* – کیا دم

qaysi bilet? – کون ٹکٹ

b) vositali kelishik:

narxi qanchadan (birlik)? – کس دم سے

qaysi bilet bilan (birlik)? – کس ٹکٹ پر

qaysi biletlardan biri (ko'plik)? – کن ٹکٹوں میں سے

Qanday, qandaydir, allaqanday ma'nolarini beruvchi aniqlovchi vazifasidagi noaniq olmoshi son va kelishikni ifodalab keladi. Noaniq olmoshning yuqoridagi shaklida aniqlanmish bosh kelishik, birlikda qo'llaniladi, masalan:

qandaydir muammo – کوئی مسائل

allaqanday ofitser – کوئی افسر

qandaydir qurol- aslaha – کوئی ہتھیار

Vositali kelishik shaklidagi (کو،...) کسی noaniq olmoshi kelishik kategoriyasidan tashqari son kategoriyasini ham ifodalashi mumkin, masalan:

qandaydir hammoldan – کسی قلی سے

allaqanday yo'lovchiga – کسی مسافر کو

qandaydir shovqindan – کسی گڑگڑاہٹ میں سے

Urdu tilida ot so'z turkumi, infinitiv va ravish, yuqorida qayd etilganidek, mustaqil bo'lmagan so'z turkumlari bilan bog'langan holda aniqlovchi vazifasida mustaqil qo'llanila olmaydi.

Ot predmet tayyorlangan material, uning kimga tegishliligi, yoshi va predmet ma'nosini bildiradigan so'z bilan solishtirib ifodalanadigan boshqa belgilarini bildirib, odatda yordamchi so'z sifatida ishlatilsa ham turlanadigan poslelog کا bilan ishlatiladi, masalan:

yetti yoshli qiz bolalar - سات براس کی لڑکی

ayiqning asali - بھالو کی ہنی

kumush bolta - چاند کا کلہاڑا

Poslelogning uchta shaklidan birini atributiv birikmani کی، کے، کا tarkibida ishlatilishi turlanadigan sifat kabi, birinchi navbatda, aniqlanayotgan so'zning jinsi bilan bog'liq.

Ot, boshqa predmetning o'ziga xos belgisi sifatida qabul qilinadigan biror-bir predmetni bildirib, ushbu belgi egasini aniqlash vazifasida والا morfemasi bilan ishlatiladi, masalan:

ko'zoynakli qariya - اینک والا بڑھیا

gulli sviter - پھولوں والا سویٹر

tuyoqli hayvon - خور والا جانور

ot + والا atributiv birikmasining tarkibiy qismi bo'lib, bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning (poslelogdan oldin kabi) shaklini oladi, masalan:

g'ishtli pol (yoki g'ishtdan qilingan pol) - اینٹوں والا فرش

ko'zoynakli shifokor (yoki ko'zoynak taqqan shifokor) - چشمے والا ڈاکٹر

baliqli taom (baliqdan tayyorlangan taom) - مچھلی والا کھانا

Bu kabi atributiv birikmada aniqlanayotgan so'z bilan moslashuvda faqat vala morfemasi (aniqrog'i uning - qo'shimchasi) grammatik jihatdan o'zgarishga uchraydi, masalan:

Hovuz bo'yidagi dalaga no'hot ekish kerak - تال والے کھیت میں مٹر بو دینا ہے

U o'zini himoya - وہ بچانے کے لئے اپنے ہنسیا والے ہاتھ کو ادھر ادھر کرتا رہا
qilib, o'roq ushlagan qo'lini goh uyoqqa, goh bu yoqqa siltar edi

bilan birikib, atributiv birikmasi tarkibida bo'lgan so'z, o'z navbatida, aniqlovchi bo'lishi mumkin va u bilan bog'liq boshqa so'zlar bilan birgalikda yaxlit atributiv birikmani tashkil qilib, ot, ya'ni aniqlanayotgan so'zning kombinatsiyalangan o'ziga xos belgisini bildiradi, masalan:

oq soqolli dehqon - سفید داڑھی والا کسان

pushti labli savdogar - گلابی ہونٹ والا دکاندار

katta-katta ko'zli qiz - بڑی بڑی آنکھوں والی لڑکی

Shu bilan birga morfemasi yordamida aniqlovchi vazifasida butun bir gap kelishi mumkin, masalan:

میں نے دوسری بات چھیڑ دی: "رو مت رو مت میں ستمبر میں پھر آؤنگا" والا قصہ
Men boshqa mavzuga o'tib ketdim: "yig'lama, yig'lama, men sentabrda kelaman" voqeasi nima haqda?

کا O'zgarma so'zlar qatoriga kiruvchi ravishlar aniqlovchi vazifasida poslelogi bilan deyarli والا morfemasi bilan qo'llanilib keladi:

bugungi gazeta - آج کا اخبار

kechagi voqea - کل کی گھٹنا

shu yerlik dehqon - یہاں کے کسان

Atributiv aniqlovchi vazifasidagi infinitiv + والا morfemasidan tashqari کا poslelogi bilan ham qo'llanilib kela oladi. کا poslelogi bilan kelganida, aniqlanmishning xususiyati va mohiyati aniqlanadi. Masalan:

yozuv stoli - لکھنے کی میز

o'qish kitobi - پڑھنے کی کتاب

الا morfemasi bilan infinitivning birikib kelishi natijasida aksariyat hollarda predikativ vazifani bajaruvchi hozirgi zamon sifatdoshi (ba'zan kelasi zamon tusi bilan) atributiv vazifada keladi. Masalan:

oktabrda bo'lib o'tadigan konferensiya - اکتوبر میں ہونے والا کانفرنس

Yuqorida aniqlovchining keltirib o'tilgan turli xil ko'rinishlari hamda ularning bu vazifada bajarib keluvchi funksiyalariga qaramay, ularning hammasini moslashgan aniqlovchilar sirasiga kiritishimiz mumkin. Negaki, ularning hammasini aniqlanib kelayotgan so'z shaklini aks ettirish xususiyati hamda grammatik kategoriyalarga muvofiq o'zgarishi (atributiv birikmalarda کا poslelogi va والا morfemasi bilan aniqlovchi vazifasidagi so'zni shakllantiruvchi grammatik yordamchi so'z o'zgarishga uchraydi) hodisasi birlashtirib turadi.

Moslashmagan aniqlovchi aniqlanmish bilan bitishuv yordamida bog'lanadi. Moslashmagan aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1) to'g'ri kelishikda kelgan ot bilan, masalan:

tinchlik tashabbusi - امن تجاویز

ishchi jamoa - مزدور جماعت

2) o'zgarma sifat bilan, masalan:

په‌اڑى راسته – *tog'li yo'llar*

3) olmosh bilan, masalan:

تمام طالبه – *barcha talaba qizlar*

4) forschao'zlashma sifatdosh bilan, masalan:

تاميلشده آرڈر – *bajarilgan buyurtma*

5) sanoq son bilan, masalan:

چار لڑكه – *to'rtta bolalar*

6) olmosh + son birikmasi bilan, masalan:

وه پانچ كتابين – *anavi beshta kitob*

7) noaniq olmosh bilan, masalan:

كئى ميزين – *bir necha stol*

Shuningdek, moslashmagan aniqlovchi “كئى لائىك” – “*to'g'ri keladigan, mos*” poslelogli o'zgaruvchan sifatlar bilan ham kelishi mumkin, masalan:

مىن نئى آپ هى كئى لائىك كپڑا بنايا – *Men sizga mos ko'ylak tikdim.*

2.2. O'zbek tilida atributiv aniqlovchi. Aniqlovchilar ko'pincha sifat orqali ifodalanadi. Shuningdek sifatdosh, son, olmosh, ravish, ot singari so'z turkumlari ham belgisiz bir so'zli aniqlovchining ifoda materiali bo'ladi.

Sifatdosh orqali ifodalangan bir so'zli aniqlovchi sifatdoshning hamma turdagi shakli bilan ifodalanadi, biroq ularning *-gan (-kan, -qan)* turi bu vazifada ko'proq qo'llanadi. Sifatdosh aniqlovchilar bo'lishli yoki bo'lishsizlik ma'nodagi uch zamonning biriga oid bo'ladi. Ana shunday holda aniqlanmishning ish-harakat yoki holat anglatuvchi aktiv belgisini ifodalaydilar, masalan:

Ot-aravada ketayotganlarning kiyimlari bashang ko'rinar edi;

Bu safar otasi chizilgan rasmni diqqat bilan qarab chiqdi va kulib qo'ydi;

To'xtovsiz o'tib borayotgan vaqt daryoning suviga o'xshaydi.

Bir so'z bilan ifodalangan sifatdoshlar o'z aniqlanmishlarini ikki xil ma'noda:

1) aniqlanmishning o'ziga oid bo'lgan ish-harakat yoki holatni, 2) aniqlanmish sifatdoshdan anglashilgan ish-harakat yoki holatning ob'yekti ekanligini aniqlaydi.

Birinchi holatda sifatdoshdan anglashilgan ish-harakat yoki holatning sub'yekti aniqlanmish bo'ladi, ikkinchisida esa sifatdoshdan anglashilgan ish-harakat yoki holatning ob'yekti aniqlanmish bo'ladi.

Bir so'zli aniqlovchilar miqdor, dona, daraja, chama va ba'zan jamlovchi sonlar orqali ifodalanadi. Demak, son orqali ifodalangan bir so'zli aniqlovchilar aniqlanmishning aniq miqdorini, donasini son jihatdan darajasini, chamalangan yoki jamlangan sonini bildiradi, masalan:

*Shunday qilib, u ham boshqalar kabi Bobilning **yetti** darvozasidan o'tdi;*

*Birdan **o'nlab** otlarning tuyoq tovushlari eshitildi;*

***Birinchi** sinfga o'ttiztacha bola kirdi. Ulardan **beshovi** a'lochi bo'ldi.*

Olmoshdan bo'lgan bir so'zli aniqlovchilar olmoshning quyidagi turlari orqali ifodalanadi:

1) Ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan aniqlovchilar aniqlanmishning so'zlovchiga nisbatan masofa va vaqt jihatdan uzoq yoki yaqinligini ifodalashga xizmat qiladi, masalan:

*Buvijonim **bu** gul, **bu** hayvonlarning har bittasini nuri diydalariday parvarish qiladilar;*

*Anvar **bu** ish juda qiyin ekanligini bilar edi;*

***Anavi** yerlar zamindorlarga tegishli bo'lgan.*

2) Belgilash olmoshlari (*hamma, barcha, bari* kabi) aniqlanmishning umumlashtirilgan miqdorini anglatadi, masalan:

***Hamma** qizlar kashtachilik san'atini o'rganishga kirishib ketdi;*

*Yosh-u qari **bari** mutolaaga sho'ng'ib ketdi;*

*Kuzgi hosillarning **barchasi** yig'ib olindi.*

Belgilash olmoshlaridan ba'zi so'zi aniqlanmishni ajratish *har, har qanday* kabilar esa cheksizlik ma'nosida aniqlaydi, masalan:

***Har qanday** odam halol mehnat orqasidangina abadiy baxtli bo'la oladi;*

***Ba'zi** odam juda ko'p gapiradi, **ba'zi** odam esa maromida gapiradi;*

***Har bir** kishi o'z maqsadiga erishdi.*

3) Bo'lishsizlik olmoshlari (*hech qanday, hech qaysi* kabilar) aniqlanmishni inkor etish ma'nosida aniqlaydi, masalan:

*Mehmonlar **hech qanday** so'z tasalli bera olmasligini bilishar edi;*

*Qosim **hech qanday** sir yo'qligini bilgach xonadan chiqib ketdi;*

***Hech qaysi** kuch bizning birdamligimizni buzib yuborolmaydi.*

4) Gumon olmoshlari aniqlanmishni noaniqlik, gumonlik yoki emotsionallik ma'nosida aniqlaydi. Noaniqlik va gumon ma'nosidagi hodisaga aniqlash iborasi shartli ravishda tadbiq qilingan bo'ladi. Chunki bunday aniqlashning o'zida aniqlik yo'q, masalan:

*Bu ayol **allaqanday** qog'ozni yoqib yuborayotgan edi;*

***Qandaydir** odamlar ko'cha boshida yig'ilib turishdi;*

***Allaqanday** hujjatlar qo'limga tushib qoldi.*

5) So'roq olmoshlari (*qanday, qanaqa, qaysi, nechta* kabilar) ma'nolariga ko'ra, o'zlari bog'langan bo'lakning biror belgisi (sifati, miqdori kabilar) ni so'rash yo'li bilan aniqlash uchun qo'llanadi. Ana shu ma'noda ular aniqlovchi hisoblanadi. Demak ularning ma'nolarida ham bevosita va aniq aniqlash bo'lmaydi, masalan:

*Uni yana **qanday** kunlar kutmoqda?!*

*Unga **qanaqadard** yo'liqibdi?*

*Bu **qaysi** idoraning binosi?*

Ravish orqali ifodalangan bir so'zli aniqlovchilar gap bo'laklariga bog'lanib, ularning aniqlovchisi bo'lib keladi, masalan:

***Ko'p** gapirsang ko'pchilikka yoqavermaysan;*

*Dehqonlar **mo'l- ko'l** hosil oldi;*

*Bemorning qizi onasi uchun **anchagina** dori keltirdi.*

Bundan tashqari sifatlovchi aniqlovchilar taqlid so'z, modal so'z hamda iboralar bilan ham ifodalanishi mumkin, masalan:

*Uzoqdan **shitir- shitir** ovoz eshitildi;*

*Unda **og'zining tanobi qochadigan** odati bor.*

Ba'zan sifatlovchi aniqlovchilar so'z birikmalari bilan ifodalanib, yig'iq yoki yoyiq holda kelishi mumkin, masalan:

*U **birinchi kungi** ishni yakunladi;*

***Ukamning uyidagi** mollarni ham olib ketishibdi;*

***Menga tegishli** bo'lakni qoldiring;*

***Ertaga bo'ladigan** majlis qoldirildi.*

***Olmadek qizarib turgan** yuzini bekitgancha yig'lab yubordi.*

Keltirilgan so'nggi misolda sifatdosh boshqa so'zlar bilan birikma hosil qilib, sifatdosh qurilmani tashkil etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham atributiv aniqlovchi deyarli barcha so'z turkumlari bilan o'zaro ifodalanib keladi. Ammo ikki tilda ham aksariyat hollarda sifat so'z turkumi hamda sifatdosh orqali ifodalangan aniqlovchilar soni jihatidan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, sifat hamda sifatdoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilar atributiv aniqlovchiga ko'proq mos keladi.

Ishni qiyoslab tahlil qilish davomida ravish so'z turkumi bilan ifodalanib kelgan aniqlovchilar aksariyat hollarda fe'l so'z turkumlaridan avval kelishini kuzatdik. Chunki ravish so'z turkumining asl morfologik vazifasi ish-harakat belgisini anglatish hisoblanadi. Lekin sintaktik jihatdan tahlil qilinganda, ravish so'z turkumi orqali ifodalangan so'z yoki so'z birikmasi aniqlovchi vazifasida turadi. Shu bilan birga bu kabi aniqlovchilar urdu tilida atributiv aniqlovchi turiga mansub emas, biroq o'zbek tilshunoslari bu kabi aniqlovchilarni istisno tariqasida kiritishgan.

Ta'kidlash joizki, urdu tilida ham o'zbek tilida ham olmosh so'z turkumi bilan ifodalangan aniqlovchi deyarli bir xilligi bilan ajralib turadi. Urdu tilida kishilik, so'roq, noaniq hamda nisbiy olmoshlar orqali ifodalansa, o'zbek tilida esa olmoshning – ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik, gumon hamda so'roq turlari bilan

ifodalanib keladi. Demak, o'zbek tilida olmosh so'z turkumi bilan ifodilangan aniqlovchi urdu tiliga nisbatan ancha sermahsul.

Rus hindshunos olimlar tomonidan urdu tilida aniqlovchining son so'z turkumi bilan ham ifodalanishi ko'rasatib o'tilgan. Ayniqsa son so'z turkumining tartib son bilan ifodalanishi sanoq son bilan ifodalanishiga nisbatan ancha mahsuldor.

O'zbek tilida esa aniqlovchi sonning bir necha turlari – tartib son, jamlovchi son, sanoq son, chama son bilan ifodalanib kelishi mumkin.

E'tiborga loyiq tomoni shundaki, qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham atributiv aniqlovchining ot so'z turkumi bilan ifodalanishi turlichadir. Urdu tilida ot so'z turkumi odatda, poslelog, morfema va yuklamalar bilan qo'llanib, aniqlanmishning xususiyati va mohiyati aniqlanadi. O'zbek tilida esa atributiv aniqlovchi, ya'ni sifatlovchi aniqlovchi aniqlanmishni o'xshatish yoki xoslanish, qarashlilik, tegishlilik singari tomonlarini aniqlaydi.

Ikkinchi bobni tahlil qilish jarayonida ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida urdu tilidan farqli o'laroq atributiv aniqlovchining ifodalanishi mustaqil so'z turkumlaridan tashqari alohida olingan guruh so'zlar – modal so'z, taqlid so'z hamda iboralar bilan ham sodir bo'ladi. Biroq o'zbek tilida bu kabi atributiv aniqlovchilar juda kam sonni tashkil etadi.

XULOSALAR

“ *Urdu va o'zbek tillarida atributiv aniqllovchi* ” mavzusi ilmiy tatqiq etilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Oldimizga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida har ikki tilda ham ko'plab ilmiy asarlar ko'zdan kechirildi. Shuning natijasi o'laroq, ikki tildagi o'xshash va noo'xshash tomonlar ham ko'rilib, mazkur ishdan qisman o'rin oldi. Bu ishda gap strukturasidagi o'rni, belgi-xususiyatlari bo'yicha farqlar u qadar sezilarli bo'lmasa-da, biroq bog'lanishida, turlarga ajralishida, ayniqsa, ifodalanishida bir-biriga zid, shu bilan birga, urdu tilida yoki o'zbek tilida bo'lmagan jihatlar o'rganilib, tahlil qilindi.

Urdu tilida aniqllovchi bevosita sifat so'z turkumi bilan bog'liq. Shu jihati bilan o'zbek tilidagi aniqllovchi urdu tilidagi aniqllovchi bilan o'xshashdir. Biroq butunlay bir xil, deyish noto'g'ri.

Ishni tahlil qilish jarayonida ikki tildagi farqlar ham kuzatildi. Keltirilgan qoida va misollardan kelib chiqadigan bo'lsak, urdu tilida aniqllovchilar belgi-

xususiyati jihatidan o'zbek tilidagi aniqlovchi bilan qisman o'xshash. Lekin aniqlovchining turlarida ba'zi bir istisnalar mavjud.

Shuni e'tiborga olish kerakki, hindshunos rus olimlar urdu tilida aniqlovchini ma'nosi hamda sintaktik munosabatiga ko'ra, shuningdek, tuzilishiga ko'ra turlarga ajratishgan. Ammo o'zbek tilshunoslari tomonidan aniqlovchi sintaktik shakllanishiga ko'ra hamda ifoda maqsadiga ko'ra turlarga ajratishgan.

Bundan tashqari, urdu tilida aniqlovchilar aniqlanmish bilan o'zaro jins, son hamda kelishikda moslashadi. O'zbek tilida esa bunday moslashuv mavjud emas. Aksincha, o'zbek tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Bu kabi misollarni biz aniqlovchining tuzilishiga ko'ra turlarida ko'rishimiz mumkin. Ammo ishni tahlil qilish jarayonida o'zbek tilida ham moslashuv usuli orqali birikuv usulining guvohi bo'ldik, ya'ni qaratqich aniqlovchi o'z navbatida qaralmish bilan moslashuv orqali birikib, faqatgina shaxs va sonda o'zaro moslashadi. Shu bilan birga moslashuv jarayonida -ning affiksi tushib qolish holatlari ham kuzatildi.

Shuningdek, urdu tilida yuklama va posleloglar bilan ham aniqlovchining yasallishini ko'rib chiqdik. O'zbek tilida esa bu kabi hodisalarni faqatgina qaratqich aniqlovchida kuzatdik, xolos. Ammo bu ikki tildagi turli hodisalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Bunda, ya'ni urdu tilida yuklama, morfema va poslelogli birikmali aniqlovchilar so'z semantikasiga hamda sintaktik jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa aksincha, egalik affiksini olgan aniqlanmish tegishlilikni, qarashlilikni anglatish bilangina chegaralanadi.

Yuqoridagi hindshunos rus olimlarining fikrlariga ko'ra, urdu tilida predikativ va yarim predikativ aniqlovchi ikki xil bog'lanishga ega: ulardan biri, uning belgisini anglatuvchi so'z bilan birga kelgan aniqlovchi bo'lsa, ikkinchisi, fe'l-kesim bilan birga kelgan aniqlovchi hisoblanadi. Demak, shundan ko'rinib turibdiki, aniqlovchilar kesimning aynan bir qismi bo'lib ham kelishi mumkin. O'zbek tilidagi bunday hodisa kam mahsulligi bilan urdu tilidan ajralib turadi. Bir jihatini unutmaslik kerakki, agar aniqlovchi fe'l oldidan ish-harakatni anglatib kelsa, u holda odatdagidek aniqlovchi o'z o'rnini holga bo'shatib beradi. Aksincha,

belgi-xususiyatini anglatib kelsa, u holda aniqlovchilik vazifasini bajarishi kuzatilishi mumkin.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham atributiv aniqlovchi deyarli barcha soʻz turkumlari bilan ifodalanib keladi. Ammo ikki tilda ham aksariyat hollarda sifat soʻz turkumi hamda sifatdosh orqali ifodalangan aniqlovchilar soni jihatidan boshqa soʻz turkumlaridan ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, sifat hamda sifatdoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilar atributiv aniqlovchiga koʻproq mos keladi.

Ishni qiyoslab tahlil qilish davomida ravish soʻz turkumi bilan ifodalanib kelgan aniqlovchilar aksariyat hollarda feʼl soʻz turkumlaridan avval kelishini kuzatdik. Chunki ravish soʻz turkumining asl morfologik vazifasi ish-harakat belgisini anglatish hisoblanadi. Lekin sintaktik jihatdan tahlil qilinganda, ravish soʻz turkumi orqali ifodalangan soʻz yoki soʻz birikmasi aniqlovchi vazifasida turadi. Shu bilan birga bu kabi aniqlovchilar urdu tilida atributiv aniqlovchi turiga mansub emas, biroq oʻzbek tilshunoslari bu kabi aniqlovchilarni istisno tariqasida kiritishgan.

Taʼkidlash joizki, urdu tilida ham oʻzbek tilida ham olmosh soʻz turkumi bilan ifodalangan aniqlovchi deyarli bir xilligi bilan ajralib turadi. Urdu tilida kishilik, soʻroq, noaniq hamda nisbiy olmoshlar orqali ifodalansa, oʻzbek tilida esa olmoshning koʻrsatish, belgilash, boʻlishsizlik, gumon hamda soʻroq turlari bilan ifodalanib keladi. Demak, oʻzbek tilida olmosh soʻz turkumi bilan ifodalangan aniqlovchi urdu tiliga nisbatan ancha sermahsul.

Rus hindshunos olimlar tomonidan urdu tilida aniqlovchining son soʻz turkumi bilan ham ifodalanishi koʻrsatib oʻtilgan. Ayniqsa, aniqlovchining tartib son bilan ifodalanishi sanoq son bilan ifodalanishiga nisbatan ancha mahsuldor.

Oʻzbek tilida esa aniqlovchi sonning bir necha turlari – tartib son, jamlovchi son, sanoq son, chama son bilan ifodalanib kelishi mumkin.

Eʼtiborga loyiq tomoni shundaki, qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham atributiv aniqlovchining ot soʻz turkumi bilan ifodalanishi turlichadir. Urdu tilida ot soʻz turkumi odatda, poslelog, morfema va yuklamalar bilan qoʻllanib,

aniqlanmishning xususiyati va mohiyati aniqlanadi. O'zbek tilida esa atributiv aniqlovchi, ya'ni sifatlovchi aniqlovchi aniqlanmishning o'xshatish yoki xoslanish, qarashlilik, tegishlilik singari tomonlarini aniqlaydi.

Bitiruv malakaviy ishini tahlil qilish jarayonida ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida urdu tilidan farqli o'laroq atributiv aniqlovchining ifodalanishi mustaqil so'z turkumlaridan tashqari alohida olingan bir guruh so'zlar – modal so'z, taqlid so'z hamda iboralar bilan ham sodir bo'ladi. Biroq o'zbek tilida bu kabi atributiv aniqlovchilar juda kam sonni tashkil etadi.

Ikki tildagi o'xshash hodisalarning ko'zga ko'ringan jihatini – bu aniqlovchiga nisbatan aniqlanmishning doimo prepozitsiya holatida qo'llanilishidir.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, garchi mazkur ishning mavzusi o'zbek urdushunosligi sohasida bitiruv malakaviy ishi doirasida qiyosiy-tipologik metodda o'rganilayotgan bo'lsa-da, umid qilamizki, ushbu mavzu yanada atroflicha o'rganilgan holda, kelajakda katta ilmiy tadqiqotlar yozilishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2012
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, T., Sharq, 1997
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Sharq Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami, 1997.
4. I. A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, Sharq, 1999.
5. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2009.
6. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyatli mutaxassislar – taraqqiyot omili. Toshkent, O'zbekiston, 1995.
7. I. A. Karimov. Yangicha ishlash va fikrlash davr talabi. T., O'zbekiston, 1997.
8. I. A. Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, Sharq, 1998.

9. I. A. Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakga e'tibor. Toshkent, Sharq, 2009

Darsliklar:

10. Давидова А. А. Учебник языка урду 1. М., Наука, 1973
11. Давидова А. А. Учебник языка урду. М., Восточная литература, 2003
12. R. Muhammadjonov V. A. Muhammadjonova. Urdu tili darsligi. T., ToshDShI nashriyoti, 1992
13. قوائد اردو ۷. شوق پبليکيشنس . راولپنڈی ، ۲۰۰۵
14. قوائد اردو ۸. شوق پبليکيشنس . راولپنڈی ، ۲۰۰۵
15. قوائد اردو ۹. شوق پبليکيشنس . راولپنڈی ، ۲۰۰۵
16. قوائد اردو ۱۰. شوق پبليکيشنس . راولپنڈی ، ۲۰۰۵

O'quv qo'llanmalar:

17. M. H. Abdurahmonova. Urdu-hindiy tillari qo'shma gap sintaksisi. T., ToshDShI nashriyoti, 2002
18. M. H. Abdurahmonova. Urdu tili leksikologiyasi. T., ToshDShI nashriyoti, 2012
19. O. N. Shomatov. Janubiy Osiyo tillariga kirish. I qism. T., ToshDShI nashriyoti, 2003.
20. T. Xolmirzayev, M. Xolmirzayeva. Urdu tili xrestomatiyasi. T., 2005.

Ilmiy asarlar:

21. A. G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., Fan, 1987.
22. اسمت جاويد. نئی قوائد اردو، دہلی، ۱۹۸۵

23. К. Гуру. Грамматика хинди. М., Иностранной литературы, 1962
24. مولوی عبدالحق . قواعد اردو . انجمن ترقی اردو (ہند) نئی دہلی . ۲۰۰۳.
25. M. T. Irisqulov. Tilshunoslikkakirish., T., O'qituvchi, 1992.
26. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. T., O'qituvchi, 1995
27. O. Azizov. Tilshunoslikka kirish. T., O'qituvchi, 1996.
28. В. А. Чернышев. Синтаксис простого предложения в хинди. М., Наука, 1965.
29. Вопросы грамматики языка хинди. М., Восточная литература, 1962
30. З. М. Дымшиц. Грамматика языка хинди 1. М., Восточная литература, 1986
31. З. М. Дымшиц. Грамматика языка урду. М., Восточная литература, 2001
32. G'. Abdurahmonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili II, Sintaksis. T., Fan, 1966

Badiiy asarlar:

33. مرزا محمد ہادی رسوا . امراؤ جان ادا . سنگ میل، ۱۸۹۹.

Lug'atlar:

34. A. Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti. 2002
35. T. Kholmirezayev. Urdu - o'zbekcha lug'at. Islomobod, "مقتدرہ قومی زبان", 2003
36. T. Xolmirzayev. Urdu-rusi lug'at, Pokiston, "مقتدرہ قومی زبان", 2012
37. В. М. Бескровный. Урду-русский словарь. М., 1951
38. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. II tom. – M., 1981.
39. O'zbek tilining izohli lug'ati. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, 1981

Internet saytlari:

40. www.india.com
41. www.urduzaban.com
42. www.hindurdu.com
43. www.urdustan.com
44. www.urduliterature.com
45. www.gulzaronline.com
46. www.dailynawa-evaqt.com
47. www.dailyjang.com
48. www.hindilanguage.com
49. www.wikipedia.pk
50. www.tsil.uz.ziyo
51. www.wikipedia.uz
52. www.ziyouz.uz